

## **SUV OMBORLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI ULARNI YARATILISH TARIXI VA FOYDALANISH MASALALARI**

**Mirzoyeva Istat Elmurodovna (BuxDU, O'zbekiston)**

**Mirzayeva Muxlisa Elmurodovna (BuxDU, O'zbekiston)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada suv omborlarning geografik xususiyatlari, xo'jalikdagi ahamiyati, yaratilish tarixi, suv omborlarning qurilishi natijasida landshaftlarning o'zgarishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** suv ombori, hovuz, kanal, qishloq xo'jaligi, flora, fauna, sho'rlanish, botqoqlanish, daryo, landshaft, ekologik omil, ko'l, soy, irrigatsiya, ihota, to'g'on.

## **ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОДОЕМОВ ИСТОРИЯ ИХ СОЗДАНИЯ И ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

**Мирзоева Истат Элмуродовна (БухДу, Узбекистан)**

**Мирзаева Мухлиса Элмуродовна (БухДу, Узбекистан)**

**Аннотация:** В этой статье описываются географические особенности водоемов, их хозяйственное значение, история создания, изменение ландшафтов в результате строительства водоемов.

**Ключевые слова:** водохранилище, пруд, канал, сельское хозяйство, флора, фауна, соленость, заболачивание, река, ландшафт, фактор окружающей среды, озеро, ручей, ирригация, икота, плотина.

## **GENERAL CHARACTERISTICS OF RESERVOIRS THE HISTORY OF THEIR CREATION AND ISSUES OF USE**

**Mirzoyeva Istat Elmurodovna (Bukhdu, Uzbekistan)**

**Mirzayeva Mukhlisa Elmurodovna (Bukhdu, Uzbekistan)**

**Annotation:** this article describes the geographical features of reservoirs, the importance of farms, the history of creation, the transformation of landscapes as a result of the construction of reservoirs.

**Keywords:** Reservoir, Pond, canal, agriculture, flora, fauna, salinity, waterlogging, river, landscape, ecological factor, Lake, sound, irrigation, ihota, dam.

Suv ombori - to'g'onlar yordamida suvni yig'ish va saqlash uchun quriladigan sun'iy suv havzasi hisoblanadi. Hidrologik adabiyotlarda yozilishicha, daryolardagi suv miqdori yil davomida mavsumdanmavsumga va u yildan bu yilga o'zgarib turadi. Yer yuzidagi, ayniqsa, O'rta Osiyo kabi arid iqlimli hududlardagi ba'zi bir daryo va soylarning suv miqdori yil davomida shu qadar notekis va noqulay taqsimlanganki, oqibatda milliardmilliard metr kub suv xalq xo'jaligiga hech qanday foyda keltirmasdan behuda oqib ketadi. Ayrim paytlarda, masalan, toshqin va to'linsuv davrlarida to'libtoshib oqib, katta zarar ham keltiradi. O'lkamiz sharoitida, qishloq xo'jaligida suvga bo'lgan talab ortgan mavsumlarda esa bunday daryo va soylardagi suv keskin kamayib ketadi, ayrim hollarda butunlay qurib qoladi.

Mana shunday sharoitda daryo va soylar suvidan to'la va samarali foydalanish hamda toshqinlarni oldini olish maqsadida ularning oqim rejimini boshqarib turish zarur. Bu muammoni daryolarda sun'iy ko'llar suv omborlari barpo etish yo'li bilan hal etish mumkin. Suv omborlari qurish o'lkamiz kabi qurg'oqchil hamda qishloq xo'jaligi sug'orishga asoslangan hududlarda ayniqsa zarurdir. Ko'pchilik suv omborlarini qurishda ekinzorlarni suv bilan ta'minlashdan tashqari, ulardan gidroenergetika, baliqchilikni rivojlantirish, yirik sanoat korxonalarini va shaharlar suv ta'minotini yaxshilash maqsadida foydalanish ham nazarda tutiladi.

Sayyoramizning deyarli barcha hududlarida gidrotexnik inshootlarni qurish ishlari bajarilib kelinmoqda. Ularning eng muhimi har xil melioratsiya (so'g'orish va quritish) turlarini amalga oshirish maqsadida bunyod etilgan suv omborlar va kanallar kabi yangi suv omborini barpo etish kiradi.

Suv omborlarning o'zga xos xususiyatlarini o'rganish to'g'risidagi ma'lumotlar ko'plab gidrolog olimlarning monografiyalarida va ilmiy maqolalarida keltirib o'tilgan. Jumladan, A.B.Avakyan (1982), A.B.Avakyan va b.

(1987). Y.S. Jasilyev (1980), S.L.Vendrov, K.N.Dyakonov (1976), Y.M.Matarzin b.(1977), V.A.Sharapov (1974), V.M.Shirokov (1974), o'zbek olimlarida SM.Mamarasulov (1964), V.L.Shulst, R.Masharipov (1969), T.Shoturayev, P.Baratov (1977), M.Qoriyev (1969), S.R.Saidov (2000) va boshqalar kiradi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo davlatlari hududida kichik suv omborlarivovuzlar eski eraning oxiri va yangi eraning boshlaridayoq qurilgan. Ularni qurishdan maqsad kichik soylar suvini to'plab, so'ng undan sug'orish ishlarida foydalanish bo'lgan.

XXII asrlarga kelib ancha yirik suv omborlari qurilgan. Ulardan biri X asrda barpo etilgan Xonbandi suv omboridir.Bu suv ombori Pasttog' darasining (Jizzax viloyati, Forish tumani) eng tor joyida qurilgan bo'lib, to'g'onining balandligi 15 metrdan ortiq bo'lgan hamda 1,5 mln m<sup>3</sup> dan ko'proq suvni sig'dira olgan. O'rta asrlarda (XVI asr) qurilgan yirik suv omborlaridan biri Samarqand viloyati Oqchob qishlog'i yaqinida barpo etilgan Abdullaxonbandi suv omboridir. Olimlar tomonidan to'plangan arxeologik ma'lumotlar shu narsadan darak beradiki, har ikki suv omborlarining to'g'oni aniq hisobkitoblar bo'yicha, oldindan tayyorlangan maxsus loyihalar asosida barpo etilgan.[5]

Ko'pgina qadimiy sivilizatsiyalar (tamaddunlar) qurg'oqchil hududlarda rivojlanib, yerlarni sug'orish hayotiy zarurat bo'lib, aholining o'troqlashishiga olib keldi va ilk davlat tuzilmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Suv omborlarini yaratish, eng yirik qurilish ishlaridan biri bo'lib, o'sha davr uchun, eng yangi texnologiya va qurilish san'atidan foydalanishni anglatadi.

Birinchi suv omborlar, qadimgi Misrda, birinchi sulola asoschilari davrida, ya'ni miloddan avvalgi 3 ming yildan oldingi vaqt davomida yaratilgan. Fir'avn Menes davrida, poytaxt Memfis shahri qurilayotgan joyda Nil daryosini burish uchun, daryoning yuqori qismida, 20 km uzoqlikda uzunligi 450 m va balandligi 15 m bo'lgan Koshish to'g'oni qurdirgan. Taxminan, miloddan avvalgi 2800-2500 yillarda, Qohiradan 30 km janubda Garaviy vodiysida, balandligi 12 m va uzunligi

108 metr bo'lgan Saddel-Kafara to'g'oni qurilgan bo'lib, suv o'tkazgich yo'qligi sababli qurib bo'lingandan so'ng uni yuvib ketgan (Schnitter, 1965). Miloddan avvalgi 2300 yillar atrofida, sig'imi 1 kilometr kubdan ortiq bo'lgan "mashhur va sirli" Myoris suv ombori qurilgan (Qohiradan 80 km janubiy-g'arbda), keyinchalik uni Gerodot, dunyoning mo'jizalaridan biri deb atagan. Ushbu suv ombori, Nildan kanal orqali yetkazib beriladigan suv bilan to'ldirilgan.[1]

Misrga qaraganda, Yaqin Sharqda suv omborlarini qurish bir oz kechroq boshlandi. Miloddan avval 2500 yilga yaqin, Tigr daryosida, Samarra shahridan yuqoriroqda, balandligi 12 metr bo'lgan Nimrud to'g'oni barpo etildi, ushbu to'g'on ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, eramizning VII asrlariga qadar faoliyat yuritgan, to'g'on va suv ombori, ushbu davrning eng buyuk inshootlaridan biri bo'lib, uning suv oqimi yiliga 1300 m<sup>3</sup>/sekundiga bo'lgan katta daryoda qurilgan. Suv omboridan Naxrvon kanali boshlangan bo'lib, u Tigr daryosi bo'ylab 400 kmga cho'zilgan; ushbu kanalni to'yintirish maqsadida, keyinchalik chap irmoqlaridan bittasida to'g'on barpo etilgan. Eramizning IX asrida arablar, Nimrud to'g'onini qayta tiklashga harakat qilib ko'rdilar, lekin bu harakat muvaffaqiyatsiz yakunlandi.

Suv omborlari qurilishi va ulardan foydalanish XX asrda ommaviy tus olib, planetar darajaga ko'tarildi. Bir tomondan, suv omborlari iqtisodiy rivojlanishning omillaridan biri bo'lsa (suvga bo'lgan aholining ehtiyoji, energiya manbai, qishloq xo'jaligi, transport), ikkinchi tomondan, landshaft-ekologik omillaridan biriga aylanib, tabiatga salbiy ta'siri bilan namoyon bo'ldi (botqoqlanish, sho'rlanish, katta hududlarning suv tagida qolishi, kasalliklar, flora va faunaning o'zgarishi). Bu suv omborlarining geografiyasi, suv sig'imi, maydoni, shakli bilan bog'liqdir.

Suv omborlarining qurilishi va faoliyati natijasida tabiiy landshaftlar o'zgaradi, ularning yangi tiplari, inson tomonidan boshqariladigan, gidrotexnika inshootlari (to'g'on, kanal, damba va boshqalar), suv bosishi bilan bog'liq bo'lgan gidrogen landshaftlar sho'rlangan, botqoqlashgan

maydonlar, tabiiy landshaftlarning tabiiy antropogen tiplari bilan almashishi kuzatiladi.[2]

Suv omborlarining qurilishi natijasida tabiiy landshaftlarning qiyofasi, tuzilishi, ulardagi kechayotgan jarayonlar va ekologik holati o'zgaradi. Bu esa, asosan, inson aralashuvi natijasida sodir bo'lishi bevosita yoki bilvosita yangi tipdagi landshaftlarning shakllanishi va paydo bo'lishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, suv omborlarini yaratishning asosiy maqsadi oqimni tartibga solish, iqtisodiyotning energetika, irrigatsiya, suv transporti, suv ta'minotini tartibga solish, suv omborlarini qurg'oqchil hamda qishloq xo'jaligini sug'orishga asoslangan hududlar uchun zarurligi e'tirof etildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan xulosalardan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflarni bildiramiz:

- suv ombori atrofida terrasalashtirilgan ixotazoralarni tashkil etilishi tog' vodiy shamollarining kuchini kamaytirib suv ombor yuzasidan suvlarning ortiqcha bug'lanib ketishining oldi olinadi.

- sel va suv toshqinlarini hamda kichik soylklarning suv rejimini o'rganish orqali suv tanqischiligini bartaraf etish mumkin. Ya'ni, suv omborlardan foydalanish imkoniyatini yana kengaytiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Авакян А.Б., Салтанкин В.П., Шарапов В.А. Водохранилища. М.:“Мысль” 1987.
- 2.Абдуллаев И.Х. Оценка и прогноз формирования антропогенных ландшафтов в зоне влияния Чарвакского водохранилища. Автореферат диссертации на соискание уч. стп. канд. геогр. наук. –Т.: 2005. –18 с.
- 3.Mirzoyeva I.E., M.K. Ergasheva. Use of landscapes near Tudakul reservoir Efficiently // BIO Web of Conferences, 05021 (2024 AQUACULTURE, 2023, 84 [https](https://www.bioconf.org/)).

4. Mirzoyeva I.E. To‘dako‘l suv ombori va unga yondosh hududlarning ekologik holatini baholash // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 64-jild. Ilmiy jurnal. –Toshkent, 2023. – B. 52-57.

5. Rasulov A.R., Hikmatov F.H., Aytbaev D.P. Hidrologiya asoslari. Toshkent: Universitet, 2003.